



“DEVONI FONIY” NASHRLARIGA KIRMAGAN IKKI G‘AZAL TABDILI VA TAHLILI

Djurayev Mabruk Ma’murjon o‘g‘li

*O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tayanch
doktaranti*

Annottatsiya: *Mazkur maqolada Alisher Navoiy - Foniyning fors tilidagi ijodiga mansub bo‘lgan, biroq “Devoni Foni”ning Eron, O‘zbekiston hamda Tojikistonda amalga oshirilgan jami olti nashrining hech biriga kiritilmagan “muxtara” va “dar bivafoyi ahli zamon” g‘azallari qo‘lyozma manbalar asosida tabdil qilinib, tahlilga tortilgan.*

Tayanch so‘z va iboralar: *Alisher Navoiy, Foni, “Devoni Foni”, Parij milliy kutubxonasi, g‘azal, tatabbu’.*

Alisher Navoiyning “Devoni Foni”si hozirga qadar turli yillarda olti marotaba nashr etilgan. Tehrondagi nusxasi asosida 1963-yili mashhur adabiyotshunos olim Rukniddin Humoyunfarruh ushbu devonning ilk nashri¹ni amalga oshirgan. Hozircha eng mukammal deb qaralayotgan Parij nusxasi esa 1965-yili taniqli sharqshunos Hamid Sulaymon tomonidan Alisher Navoiyning o‘n besh jildlik² asarlari tarkibida ilk bor bosilib chiqqan. Dushanbeda 1993-yilda “Irfon” nashriyotida Rahmon Rajabiy muharirligida nashr etilgan³. Alisher Navoiy asarlari 20 jildlik “Mukammal asarlar to‘plami”ning 18, 19, 20-jildlari⁴dan ayni devon o‘rin olgan. Shuningdek, 2011-yilda Alisher Navoiyning “To‘la asarlari to‘plami”⁵ning beshinchi jildi ham shu devonga bag‘ishlangan. “Devoni Foni”ning Eronda amalga oshirilgan ikkinchi nashr⁶i hijriy 1400-yilda Sayid Abbos Rustohiz Sonchorki tomonidan amalga oshirilgan. Ayni maqolamizda yuqorida ma‘lumot berilgan nashrlarning birortasiga ham kiritilmagan ikki g‘azal to‘g‘risida bayon qilamiz ya‘ni shu ikki g‘azalning aslini va tabdilini bergan holda tahlilga tortamiz.

“Devoni Foni”ning qo‘lyozmalari asosida tiklangan barcha g‘azallari esa 554 tani tashkil etsa-da, bu devonning Parij milliy kutubxonasidagi 1345 raqamli nusxasidan o‘rin olgan “muxtara” va “dar bivafoyi ahli zamon” sarlavhali g‘azallari “Devoni Foni”ning hech bir nashrida uchramaydi. Chunki amalga oshirilgan nashrlarning eng to‘lig‘i hisoblanmish “To‘la asarlar to‘plami” va Erondagi Sanchorkiy nashri tarkibiga 552 g‘azal kiritilgan. “Mukammal asarlar to‘plami”da esa garchi mualliflar 18-jildga 267 ta, 19-jildga esa 285 ta - jami 552 g‘azal kiritilgani to‘g‘risida ma‘lumot bersalar-da g‘azallar bilan bog‘liq kamchilik yuzaga chiqib, ularning miqdori 549 ta ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Ya‘ni uchta g‘azal takroran kiritib qo‘yilgan. Ular quydagilar:

G‘azalning birinchi misrasi	Jildi	G‘azal o‘rin olgan betlar
-----------------------------	-------	---------------------------

¹ Amir Nizam al-din al-Ghazali no‘yi “Fani”. Bseyi va ahtamam rkn al-din hamayonfarx. Chap ol. Farvardin mah 1342. az antsharat knabaxane ابن سينا. تهران ص. 233.

² A.Навоий. Асарлар. 15 томлик. Т.5. 1,2-китоблар. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1965.

³ Amir Ali Shir Fani. Diwan Fani (منتخب). Dushnbe. 1993. ص. 320.

⁴ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar t‘plami. 20 томлик. Девони Фони – Тошкент, Фан, 2002. 18,19,20 том.

⁵ Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami - 10 jildlik. - Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2011.

⁶ Diwan Amir Nizam al-din al-Ghazali no‘yi Fani. Be kushsh: سيد عباس رستاخيز سانچاركي. با مقاله استاد نجيب مايل هروي. با مقدمه سيد رضا باقريان موحد. انتشارات شفيعی. 1400.

تا گدایی در میکده آیین منست	18	150-bet
میل سرورم ز هوای قد دلجوی تو بود	18	221-bet
چو خس گم گشتم اندر باغ خُسن و ناز گل رویی	19	302-bet

Yuqorida daslabki misrasi keltirilgan g‘azallar “Mukammal asarlar to‘plami”ning 18-jildning 153, 222- betlarida “tatabbu’ Xoja”, va 19-jildning 303-betida “tatabbu’ Maxdum” sarlavhali g‘azallar takror kiritib qo‘yilgan.


Quyidagi g‘azallar “Mukammal asarlar to‘plami”da uchramadi:

1	بی گل رویت ز نرگسها فشانم لاله ها
2	چون ندیده هیچگه نی از جهان وفا
3	ای گلشن جمال توام نوبهار عمر
4	ریخت می بر خرقة ام وز زُهد حاصل شد فراغ
5	شب هجرم چه سود از مه جمال یار بایستی

“Mukammal asarlar to‘plami”ni tuzishda mualliflar eng mukammal hisoblangan Parijdagi 285 raqamli qo‘lyozmaning fotonusxasidan asos nusxa sifatida foydalanishgan. Shuningdek, “Devoni Foniyy”ning Tehron nashri, tojikistonlik adabiyotshunos olim Murodiy (Tojiboev Hojimoreddin) nashrga tayyorlagan “Devoni Foniyy” qo‘lyozmasidan ham istifoda etilgan⁷. Tahlil qilinayotgan g‘azallarning biri Parijdagi 285 raqamli nusxada mavjud va u 173a varaqda hoshiyaga yozilgan, lekin qo‘lyozma varaqlari emirilishi natijasida g‘azal har bir misrasining oxiri, ayrim misralarning yarmini o‘qib bo‘lmaydi. Bu ikki g‘azal Parijdagi 1345 raqamli nusxada mavjud ekanligi hisobga olinsa, ehtimol, bu nusxadan hech bir nashrda foydalanilmagan.


Parij milliy kutubxonasida 1345 raqamli devon qo‘lyozma nusxasining 12b varag‘ida joylashgan “Muxtara” g‘azal quyidagicha:

<p>بی گل رویت ز نرگسها فشانم لاله ها لاله نی کز غنچه خونین شده پر گلها شربتیی دان از نیات آمیخته ز آب حیات لعل تو و انکه حباب ریزه اش تبخالها شیشه عیش که ظاهر شد بدوران چون حساب کش زمانه سنگ بارانش نکرد از ژالها دل برستی ز افت چشمان تنگ ترک من گر گرفتاری نبودیش آخر از دنیاها خم چو جنگم شد قد از بار غم رعنا قدی ز ان سبب از سینه در هر گوشه دارم نالها ماه را یک هاله باشد عکس ساقی بین بسی از خطوط دور ساغر کرد و ظاهر هالها زنده از امید وصلت گر نبودی تا کنون فانی از هجرت برابر بود با صد سالها⁸</p>	<p>Bē+ guli ruyat zi nargis-hā fišānam lālahā Lāla nē k-az yunčai xūnin šuda pargā-lahā Šarbatē dān az nabāt āmēxta z-ābi hayāt, La’li tū v-āngah hubābi rēzaaš tabxālāhā. Shishai ayshaš ki zāhir šud ba davrān chun hisob, K-aš zamāna sangbārānaš nakard az Žālahā. Dil birasti z-ulfati čašmāni tangi turki man, Gar giriftārī nabūdiš āxar az dunbālahā. Xam čū čangam šud qad az bāri yami ra’nā-qadē, Z-ān sabab az sina dar har gūsha dāram nālahā. Māh-rā yak hāla bāšad aksi sāqi bin basē, Az xutūti davri sāg‘ar karda zāhir hālahā. Zinda az ummēdi vaslat gar nabūdi tā kunūn, Fānī az hajrat barābar būd bā sadsālāhā.</p>
---	---



⁷ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами.– Т.: Фан, 2002. 18-том, В.2.

⁸ Alisher Navoiy. Devoni Foniyy. Parij milliy kutubxonasi. Inv:1345. 12b varaq.



Alisher Navoiy. Devoni Foniyy.

Parij milliy kutubxonasi. Inv:1345. 12b varaq.

Bu g'azal faqatgina Parij milliy kutubxonasidagi ikki qo'lyozmada mavjud. Qolgan etti qo'lyozmada uchramaydi.

Ushbu g'azalning asosiy mazmuni ishqiy iztirob, visolga umid va hijron azobi bo'lib, lirik qahramon yor jamolidan ayro qolgan holatida tabiat obrazlari orqali o'z ichki kechinmalarini bayon qiladi. Alisher Navoiy o'zining forsiy tilidagi g'azallarida nafaqat ishqiy, balki chuqur tasavvufiy mazmuni ham mujassamlashtiradi. Ushbu g'azal ham shoirning badiiy tafakkuri va nozik tashbehlar borasidagi yuksak mahoratini namoyon qiladi. G'azalda ishqning azobi, hijronning mashaqqati va visolga bo'lgan umid asosiy mavzu hisoblanadi.

G'azalning dastlabki baytlarida shoir tabiat obrazlari orqali o'z ichki kechinmalarini ifodalaydi. Gul, lola, nargis singari an'anaviy ishqiy timsollar juda chiroyli tarzda foydalanadi. Xususan, "qonli g'unchadan bo'lgan parcha" obrazi oshiq yuragidagi dard va iztirobning ramziy ifodasi bo'lib, ishq yo'lidagi fidoiylikni anglatadi. Bu erda ranglar orqali hissiy holat tasvirlanib, qizillik iztirob va qon timsoliga aylantiriladi. Shunigdek, Ma'shuqaning lablari "la'l", suvi esa "obi hayot" bilan qiyoslanishi g'azalga tasavvufiy qatlam olib kiradi. Obi hayot - abadiy hayot ramzi bo'lsa, la'l - ilohiy haqiqat va komillik timsolidir.

G'azalda ishq azobining jismoniy va ruhiy ta'siri yuksak mahorat bilan qo'llangan tashbehlar yordamida ifodalanadi. G'am yukidan bukilgan qomat, ko'ksidan taralayotgan nolalar esa iztirobning kuchli va davomlilikini anglatadi. Bu tasvirlar oshiqning ichki kechinmalarini ko'rsatadi va g'azalning hissiy ta'sirchanligini yana-da oshiradi.

G'azalning so'nggi baytida shoir o'z ichki kechinmalarini umumlashtirib, hijron azobi "yuz yil"ga qiyoslanadi, visol umidi esa hayotning yagona tayanchi sifatida talqin qilinadi. Ya'ni "hozirgacha visoling umidi bo'lmaganida, bir lahzalik firoqing azobi yuz yilga teng bo'lar edi". Bu bayt g'azalning g'oyaviy xulosasi bo'lib, umid insonni tirik tutuvchi eng muhim kuch ekanligi anglashiladi. Ushbu g'azal Alisher Navoiyning forsiy ijodida ishq, hijron va visol masalalarining naqadar chuqur va badiiy mukammal yoritilganini ko'rsatadi.



Foniy ramziy obrazlar, tashbeh va mubolag'alar orqali ishqni inson ruhini poklovchi, uni komillik sari etaklovchi kuch sifatida talqin etadi.

Navbatdagi g'azal ham Parij milliy kutubxonasida 1345 raqamli devon qo'lyozma nusxasining 12b varag'ida joylashgan bo'lib, "dar bivafoyi ahli zamon" sarlavhasi ostidadir. G'azal quyidagicha:

<p>چون ندیده هیچگه نی از جهان نز جان وفا از تو ای جان و جهان کردن طمع نتوان وفا دور بزمست یک دمست و بزم دورت ساعتی کی سزد در یکدم و یکساعت از دوران وفا بی وفایی لازم انسان و انسانیت نیست پس انسان هر انکو جوید از انسان وفا چون ندارد ادمی زان رو وفا ظاهر نکرد گر پری دارد مگر ظاهر کند پنهان وفا گر بود سگ را وفا از بی وفا انسان بهست من سگ آن آدمی کو را بود امکان وفا از نشاط وصل عاشق را وفا هرگز نبود تا که عاشق بود دید از محنت هجران وفا دور خوبی را وفا نبود وفا اندیش باش ز آنکه در خوبی نماید خوب از خوبان وفا ساقیا از بی وفایی دورتم ملول مست کردم تا نیارم جست ازو چندان وفا فانیا تا زنده اهل وفا را بنده باش بی وفایی خو مکن رسم فنا میدان وفا⁹</p>	<p>čün nadīda hēčgah nē az jahān n-az jān vafā, Az tu ēy jān-ū jahān kardan tama' natvān vafā. Davri bazmat yak damast-u bazmi davrat soatē, Kī sazad dar yak dam-ū yak sāat az davrān vafā. Bēvafāyī lāzimi insān-ū insāniyatast, Nēst pas insān har ān-k-ō jūyad az insān vafā. čün nadārad ādamī z-ān rū vafā zāhir nakard, Gar parī dārad magar zāhir kunad pinhān vafā. Gar buvad sag-rā vafā az bē-vafāinsān behast, Man sagi ān ādamē k-ōrā buvad imkān vafā. Az nišāti vasl āšiq-rā vafā hargiz nabūd, Tāki āšiq būd did az mehnat hijrān vafā. Davri xūbī-rā vafā nabvad vafāandēš bāš, Z-ānki dar xūbī namāyad xub az xūbān vafā. Sāqiyā az bē-vafāyihāyi davrānam malul, Mast kardam tā nayāram just az-ū čandān vafā. Fāniyā tā zindai ahli vafā-rā banda bāš, Bē-vafāyī xū makun rasmi fanā medān vafā.</p>
---	--



Alisher Navoiy. Devoni Foniy.
Parij milliy kutubxonasi. Inv:1345. 12b varaq.

⁹ Alisher Navoiy. Devoni Foniy. Parij milliy kutubxonasi. Inv:1345. 12b varaq.



Bu gʻazal “dar bivafoyi ahli zamon” sarlavhali ostida yozilgan boʻlib, faqatgina Parij milliy kutubxonasiidagi 1345 raqamli hamda Britaniya muzeyi fondida saqlanuvchi qoʻlyozmalarda mavjud. Qolgan etti qoʻlyozmada uchramaydi. Gʻazalda matladan boshlab to maqtaga qadar “vafo” tushunchasi bayon qilingan.

Alisher Foniyning ayni gʻazalida shoirning insonlar tabiatidagi eng qimmatli fazilat “vafo” va eng yomon illat “bevafoqlik” masalasidagi qarashlari aks etgan. Unga koʻra “vafo” insonlarda kam uchraydigan kamyob, lekin maʼnaviy kamolotning eng yuksak belgisi hisoblanadi. Shoir gʻazalning dastlabki baytlaridayoq insondan va zamondan vafo kutish naqadar mushkul ekanini taʼkidlaydi. Uning nazarida, inson tabiatida bevafoqlik ustundir. Shu bois Foniy “insondan vafo izlagan kishi, aslida inson mohiyatini yaxshi anglamagan” degan keskin xulosaga keladi.

Foniy bu gʻazali orqali insonlarni bevafoqlikdan yiroq boʻlishga hamda vafo ahliga sadoqat bilan xizmat qilishga chorlaydi. Shuningdek, gʻazalda shoir davrida vafo yoʻq ekanligini achchiq va chuqur mazmunli ohangda ifoda etgan.

Foniy ayni gʻazalida tazod badiiy sanʼatidan ham ustalik bilan foydalangan. Misol tariqasida “vafo” va “bevafoqlik”, “visol” va “hijron” tazodlarini keltirishimiz mumkin. Xususan, gʻazalning toʻqqizinchi misrasida shunday yozadi: **گر بود سگ را وفا از بی وفا انسان بهست** – “Agar itda vafo boʻlsa, u bevafo insondan yxshiroqdir”.

Gʻazal maqtasida shoir oʻziga murojaat qilib “insonni tiriklik chogʻidayoq vafo ahliga xizmat qilishga, bevafoqlikka odatlanmaslikka chorlaydi hamda fano yoʻlining odobi vafo ekanini” taʼkidlaydi. Ushbu gʻazal chuqur falsafiy va axloqiy mazmunga ega gʻazal hisoblanadi.

“Dar bivafoyi ahli zamon” gʻazalida zamona va insonlar bevafoqligiga oid ijtimoiy-falsafiy qarashlar namoyon boʻlsa, “Muxtara” gʻazalida ishq, hijron va umid mavzulari yetakchi oʻrin egallaydi. Har ikki gʻazal ham Foniyning forsiy sheʼriyatidagi poetik tafakkurini yanada boyituvchi gʻazallar sifatida ahamiyatli hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, ushbu ikki gʻazalning “Devoni Foniy” nashrlarida uchramasligi Navoiyning forsiy sheʼrlarini shu paytga qadar amalga oshirilgan hech bir nashri qamrab olmaganligini koʻrsatadi. Shu jihatdan, devonning maʼlum qoʻlyozma nusxalari bilan birgalikda yangi aniqlangan qoʻlyozma nusxalarini ham chuqur tadqiq etilishini, ular asosida aniqlangan yangi sheʼrlarni ilmiy muomalaga kiritish, shu bilan birgalikda, kelgusida uning ilmiy tanqidiy nashrini amalga oshirish bugungi kun matnshunoslari oldida turgan muhim va zarur vazifalardan biri ekanligini tasdiqlaydi. Shundagina Alisher Navoiyning fors tilidagi ijodini yanada toʻliqroq anglash hamda Foniy devoni tarkibini yana-da boyitish mumkin boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy. Devoni Foni. Parij milliy kutubxonasi. Inv:285-V.
2. Alisher Navoiy. Devoni Foni. Parij milliy kutubxonasi. Inv:1345.
3. Алишер Навоий. Девони Фоний. Асарлар. Ўн беш жилдлик. 5-жилд. I ва II китоблар. Тошкент, 1965.



4. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик. Девони Фоний – Тошкент, Фан, 2002. 18,19,20 том.
5. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами - 10 жилдлик. - Тошкент: Ғафур Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2011.
6. Шодиев Э. “Девони Фоний” нашрлари// “Ўзбек тили ва адабиёти”. 1988, 1-сон.
7. امير على شير فانى. ديوان فانى (منتخب). دوشنبه. "عرفان". 1993. ص. 21.
8. امير نظام الدين عليشير نوایى "فانى". بسعی و اهتمام ركن الدين همایونفرخ. چاپ اول. فروردین ماه 1342. از انتشارات کتابخانه ابن سینا. تهران ص. دو
9. ديوان امير نظام الدين عليشير نوایى فانى. به کوشش: سيد عباس رستاخيز سانچارکى. با مقاله استاد نجيب مایل هروى. با مقدمه سيد رضا باقريان موحد. انتشارات شفیعی. 1400